



## XALQ DEPUTATLARI KATTAQO'RG'ON TUMANI KENGASHINING QARORI

2025-yil 28-yanvar

VII-5-9-7-96-K/25

Kattaqo'rg'on tumani

### **Tuman hokimi o'rribbosari-Investitsiya va tashqi savdo bo'limi boshlig'i Sh.Isaqulovning "Tumanga 2024-yilda investitsiya loyihalari yuzasida amalga oshirilgan ishlari to'g'risida"gi hisoboti haqida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 16-yanvardagi "Investitsiya va eksport bo'yicha asosiy vazifalar" to'g'risidagi video selektorida berilgan topshiriqlar ijrosini ta'minlash tumanda yangi loyihalarni shakllantirib, investitsiya salohiyatini oshirish tuman hokimi o'rribbosari SH.Isaqulovning hisobotini muhokama etib, Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6-, 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari tuman Kengashining 5-sessiyasi

#### **QAROR QILADI:**

1. Tuman hokimi o'rribbosari-Investitsiya va tashqi savdo bo'limi boshlig'i SH.Isaqulovning "Tumanga 2024-yilda investitsiya loyihalari yuzasida amalga oshirilgan ishlari to'g'risida"gi hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. Tuman hokimi o'rribbosari SH.Isaqulovga
  - 2025 yilda tumanda hududiy investitsiya dasturi doirasida yangi loyihalarni ishga tushirish;
  - tumandagi qishloq xo'jaligi korxonalari, fermer xo'jaliklari hamda sanoat korxonalari mahsulotlarini eksportga chiqarish;
  - eksport ko'rsatkichlarini oshirish sanoat, meva sabzavot mahsulotlari eksportini oshirish vazifalari yuklatilsin.
3. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo'yicha doimiy komissiyasi (A.Xudyberdiyev) hamda tuman hokimi o'rribbosari Sh.Isaqulov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



NASRIDDINOV  
JAMSHID  
TULKINOVICH

